XIX – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGINING TASHQI SAVDOSIDA AFG‘ON SAVDOGARLAR O‘RNI

Raxmatov Ramshod Raximovich
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti
e-mail: raxmatovramshod@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Buxoro amirligining XIX asr – XX asr boshlaridagi tashqi savdo aloqalarida afg‘on savdogarlarning tutgan o‘rni xalqaro manbalar asosida o‘rganiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi afg‘on savdogarlarning Buxoro, Hindiston, Kashmir, Eron va Rossiya o‘rtasidagi savdo jarayonlaridagi faoliyatini, ularning olib borgan asosiy tovar turlarini va savdo yo‘nalishlarini tahlil qilishdan iborat. Maqolada tarixiy-taqqosiy metod qo‘llanilib, E.K. Meyendorf, A. Byorns, I.V. Vitkevich kabi sayyoh va diplomatlarning arxiv ma’lumotlari hamda asarlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, afg‘on savdogarlar nafaqat Buxoro bilan Afg‘oniston o‘rtasidagi, balki butun Markaziy Osiyo, Janubiy Osiyo va Rossiya o‘rtasidagi savdoda muhim vositachi rol o‘ynagan. Ularning faoliyati Buxoro amirligini xalqaro savdo tarmoqlariga ulab, uning iqtisodiy hayotida katta ahamiyat kasb etgan. Xulosa qilib aytish mumkinki, afg‘on savdogarlar Buxoro amirligining mintaqaviy iqtisodiyotdagi integratsiyasini ta’minlovchi asosiy omillardan biri bo‘lgan.*

Kalit so‘zlar. *Buxoro amirligi, afg‘on savdogarlar, tashqi savdo aloqalari, XIX asr, Meyendorf, Byorns, Vitkevich, Hindiston, Rossiya, Kashmir.*

Kirish

XIX asr Buxoro amirligi tarixida murakkab va dolzarb davr hisoblanadi. Bu davrda amirlik nafaqat ichki siyosiy o‘zgarishlar, balki mintaqada kuchayib borayotgan Rossiya va Britaniya imperiyalari o‘rtasidagi raqobat („Katta o‘yin“) markazida joylashgan edi. Shu kontekstda amirlikning tashqi iqtisodiy aloqalari, xususan, Afg‘oniston va Hindiston bilan an’anaviy savdo yo‘llari bo‘yicha olib borilgan faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Afg‘on savdogarlar bu aloqalarning asosiy vositachisi sifatida Buxoro iqtisodiy hayotida muhim o‘rin tutgan.

Mavzuning dolzarbligiga qaramasdan, bu borada alohida va sistemali tadqiqotlar yetarli darajada amalga oshirilmagan. Hozirgi tadqiqot E.K. Meyendorf, A. Byorns, I.V. Vitkevich kabi o‘sha davrning bevosita guvohlari bo‘lgan rus va ingliz sayyoh, harbiy va diplomatlarining asarlariga tayanib, ushbu bo‘shliqni qisman to‘ldirishga harakat qiladi.

Asosiy qism

Rus tabiatshunos olimi va topografi E.K.Meyendorf Buxoro bozorlari rastasida hind gazlama matolari borligini aytib o'tgan. Azaldan Buxoroga Hindistondan guruch, qimmatbaho toshlar va yupqa shamshir keltirilgan. Kashmir bilan olib borilgan savdoda Buxoroning afg'on savdogarlari asosiy rol o'ynagan. Ular Kashmirdan shol va zar iplardan to'qilgan movut olib kelganlari haqida ma'lumotlar bor. Meyendorf hindlar o'z tovarlari bilan Kabul, Shikarpur, Multon va umuman Hindistondan keladilar, deb yozadi [4,42]. Ular kashmir sholi, zar ip bilan to'qilgan ipak matolar, yupqa ip matolar, salla uchun ishlatiladigan oq mato va astarlik uchun ishlatiladigan gulli mato, mayda dur va qimmatbaho toshlar, nil bo'yog'i keltirgan.

Asarda Buxoroning Afg'oniston bilan savdo aloqalari ikkita savdo yo'li orqali olib borilishi xususida fikr bildirilgan. Birinchisi, Balx orqali Kobulga, ikkinchisi esa Buxorodan Hirotga boradigan yo'l bo'lgan. Afg'oniston Buxoroga eng yaqin mamlakat bo'lganligi sababli uzoq yillardan buyon bu ikki davlat o'rtasidagi savdo aloqalari doimiy davom etib turgan. Meyendorf ma'lumotlariga ko'ra, bir savdogar Buxorodan Kobulga 30 marta borgan. Uning yozishicha, afg'onlar Buxoroga o'zlarining tovarlarini va tranzit yo'li bilan kashmir sholi matosini olib kelgan. Shunday qilib, Meyendorf keltirgan dalillar XIX asrning 20-yillarida ham Buxoro xonligining Afg'oniston, Hindiston, Kashmir va Eron bilan jadal savdo aloqalarida bo'lib turganlini tasdiqlaydi. Jumladan, keyingi to'rt-besh yilda Buxoroda hindlar soni juda tez ko'payib ketib 300 taga yetgan, ularning bir qismi muqim o'rnashib olgan bo'lsa, qolgan qismi esa Kobulga borib-kelib turadi. Buxoroda taxminan 4000 afg'onlar bo'lib, ularning bir qismi savdo bilan shug'ullangan. Eronliklar esa 40000 kishi bo'lib, ularning aksariyat ko'pchiligi qullar bo'lgan[1,106].

Ingliz zobiti va sayyohi A.Byorns Buxoroda afg'onlarning savdo bilan shug'ullanishini ta'riflab, ularning ba'zilari Buxoro orqali Rossiya bilan ham savdo qilgan, deb yozadi. Bunga misol qilib, Byorns bilan birga Kobuldan Dulat ismli afg'on savdogari savdo qilish uchun Buxoroga kelganligi, u yerdan Rossiyaga bormoqchi bo'lganligi haqida yozib qoldirganligini eslatish kifoya[2,41]. Byornsning ma'lumotlariga ko'ra, Kobul bozorlarida Buxorodan keltirilgan 40 dan ortiq turdagi rus va O'rta Osiyo mollari bo'lib, ularning 30 dan ortig'i Rossiyadan keltirilgan edi. Bundan tashqari, Buxoroga Hindistondan 17 xil hind, shuningdek, yevropa, xususan ingliz tovarlari keltirilgan bo'lib, bular: indigo, kashmir jun ro'mollari, «lungi» deb ataluvchi multon sharflari, «nosirxon», «xota», «xosa — babar», «andarshox», «bedalxoni» va boshqa nomlar bilan ataluvchi hind matolaridir[3,42].

1836-yilda Y.V.Vitkevich general-adyutant V.Perovskiyning katta adyutanti qilib tayinlanadi. U rus hukumatining topshirig'i bilan 1835—1836-yillarda Buxoroda bo'lgan. Sayyoh o'z ma'lumotlarida Buxoro savdosining qirralarini yoritib bergan. Uning ma'lumotlariga ko'ra, Buxoroda o'sha paytda 25 ta karvonsaroy bo'lib, ularning

har birida sharqning turli davlatlaridan kelgan savdogarlar yashashgan. Masalan, boy afg'on savdogari Badriddin Buxoroda o'zining karvonsaroyi, oilasi va uyiga ega bo'lib, uning hisobida 40 ming tillo yoki 160 ming rubl puli bo'lgan. U Buxorodan Kobulga yuzlab eng asl otlar va ko'plab rus tovarlari olib borgan. Vitkevichning bu ma'lumotlari juda muhim, ammo u savdogar Badriddinning boyligi hisobida adashgan ko'rinadi. Agar rus filolog-sharqshunosi P.I.Demezon ma'lumotiga ko'ra, 1 tillo 15 rublga teng bo'lsa, afg'on savdogarining sarmoyasi esa 160 ming rubl emas, balki 600 ming rubl bo'lishi kerak edi[4,42].

XIX asrning 30-yillari boshlarida O'rta Osiyo bozorlarida ingliz va rus tovarlari o'rtasidagi raqobat tobora kuchaya boradi. Shu davrlarda ingliz tovarlari Afg'oniston orqali O'rta Osiyo xonliklariga, rus tovarlari esa O'rta Osiyo xonliklari orqali Afg'onistonga ko'proq kirib kela boshlaydi. Natijada afg'on savdogarlari xalqaro savdo munosabatlariga tobora keng jalb qilina boshlangan. A.Byorns xabariga ko'ra, afg'on savdogarlari rus yarmarkalariga ham tashrif buyurishgan. Buxoro savdogarlari afg'on savdogarlarining ingliz tovarlarini O'rta Osiyo bozorlariga olib kelayotganligidan norozi bo'lishgan[5,38].

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, afg‘on savdogarlar XIX – XX asr boshlarida Buxoro amirligining tashqi savdo aloqalarida nafaqat vositachi, balki xalqaro savdo tarmoqlarini bog‘lovchi kuch sifatida faoliyat yuritgan. Ular Buxoro bilan Afg‘oniston, Hindiston, Kashmir, Eron va Rossiya o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlab, amirlikning xalqaro savdo tizimiga integratsiyasida muhim omil bo‘lgan. Bu jarayonlar Buxoro iqtisodiy hayotining jonlanishiga, bozorlarning kengayishiga va amirlikning mintaqaviy o‘rni mustahkamlanishiga olib kelgan.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Мейендорф Е.К. *Путешествие из Оренбурга в Бухару*. М.: Наука, 1975
2. Бёрнс А. *Путешествие в Бухару*. Ч.1. М., 1848
3. Бёрнс А. *Кабул – путевые записки сэра Александра Бёрнса в 1836; 1837 и 1838 годах*. Ч.1. М., 1847
4. *Записки о Бухарском ханстве (Отчёты П.И.Демезона и И.В.Виткевича)*. М., 1983
5. Соколов А.Я. *Торговая политика России в Средней Азии и развитие русско-афганских торговых отношений*. Т. 1971